

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH UCHUN QILINGAN ISLOHOTLAR

Bo’riyeva Zumrad Nabiyevna

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi Loyiha boshqaruvi yo’nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mustaqillik yillarida O’zbekistonda bozor iqtisodiyotining asosi bo’lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratilganini qayd etish zarur. O’rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o’rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo’lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlanterish bo‘yicha qulay ishbilarmonlik muhitni hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi.

Natijada so‘nggi o‘n yilda yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes ulushi 31,1 foizdan 52,5 foizga o‘sdi, ushbu sohada bandlik darajasi iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band aholi umumiy sonining 49,7 foizidan 74,5 foizigacha oshdi. Aholi daromadlarining 47 foizdan ziyodi tadbirkorlik faoliyatidan tushgan daromadlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturiga muvofiq, joriy yilda tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlanterish uchun yanada qulay biznes muhitni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar qabul qilindi.

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va ularni muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash tartibi sezilarli darajada soddalashtirildi hamda bu jarayon yanada ochiqlik kasb etdi. Ro‘yxatga olish uchun davlat boji stavkasi ikki barobarga qisqartirildi. Ishchilarning yillik o‘rtacha soni 100 kishigacha ko‘paytirilgan kichik korxonalar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxati sezilarli darajada kengaytirildi. Kichik biznes subyektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng miqyosda jalb qilish mexanizmi ishlab chiqildi va joriy etildi.

Kalit so‘zlar: Kichik biznes, tadbirkorlik, loyiha, davlat, subyekt, biznes, rivojlanish, xususiy tadbirkorlik

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va ularni muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash tartibi sezilarli darajada soddalashtirildi hamda bu jarayon yanada ochiqlik kasb etdi. Ro‘yxatga olish uchun davlat boji stavkasi ikki barobarga qisqartirildi. Ishchilararning yillik o‘rtacha soni 100 kishigacha ko‘paytirilgan kichik korxonalar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxati sezilarli darajada kengaytirildi. Kichik biznes subyektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng miqyosda jalb qilish mexanizmi ishlab chiqildi va joriy etildi.

Kichik biznes va tadbirkorlik mehnatdan foydalanish sohasi va aholining salmoqli qismi uchun daromad manbai hisoblanadi. Bugungi kunda kichik biznes mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biriga aylanib, bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to‘ldirishning asosiy manbaiga aylandi. Kichik biznesni rivojlantirish O‘zbekiston iqtisodiyotidagi tarkibiy o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Bu soha zarur raqobat muhitini yaratib, qo‘srimcha ish o‘rinlari yaratilishi va aholi daromadlarining oshishiga xizmat qilmoqda.

Kimlar uchun?

Magistratura dasturi tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan fuqarolar, kelgusida o’sish uchun kasbiy bilimlarini chuqurlashtirishni xohlovchilar, o’z iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishni xohlovchilar uchun mo’ljallangan.

Dastur maqsadi:

“70410901 – “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish” (Biznes innovatsiyalari va tadbirkorlik)” mutaxassisligi bo‘yicha magistraturada biznes nazariyasi va amaliyotini o‘rgatish orqali tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish.

- tadbirkorlik sohasida ko’nikmalarni shakllantirish va uning magistratura dasturining kontseptual asoslarini olib berish;
- tadbirkorlikni rivojlantirish, rag’batlantirish, kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini ta’minalash bo‘yicha qonunlar va normativ hujjatlar chiqaradi, ya’ni. tadbirkorlikning huquqiy va tashkiliy asoslari;
- zamonaviy sharoitda tadbirkorlikni tashkil etish, tadbirkorlikning tashkiliy shakllari, uni ro’yxatga olish tartibi va kichik korxonalarning ishlash tartibi bilan tanishtirish;
- xususiy va kichik korxonalarni tashkil etish jarayonlarini, biznes yuritish bosqichlarini olib berish;
- Biznesni rejalashtirish qoidalari bo‘yicha mukammal ta’lim.

Dasturning afzalliklari:

- o’quv va mehnatni uyg'unlashtirish imkoniyatiga ega modulli o’qitish tizimi;
- professor-o‘qituvchilar tarkibini viloyatdagi yetakchi amaliyotchilar, professor va fan nomzodlari orasidan puxta tanlash;
- iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning yetakchi ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining ishtiroki;
- respublika va xorijiy davlatlar olimlari va mutaxassislari ishtirokida muammoli-maqsadli muhokamalar, “davra suhbatlari”, konferensiylar, simpoziumlar;
- hamkorlik dasturi asosida chet elda o’qish imkoniyati.

Dasturning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u amaliy faoliyatga asoslangan bo‘lib, talabalarga tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning yangi yo‘llarini ochadigan innovatsion yechim va usullarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Tadbirkorlik va Biznes asoslari nimani o’rgatadi? U o‘z Biznesingizni tashkil qilib, uni rivojlantirish, muvaffaqiyatli tadbirkor bo’lishingizga imkoniyat yaratadi. Tadbirkor va Biznes deganda faqatgina pul topish yo‘lidagi harakat, boylik oshirishga intilish bilan cheklanib qolmagan holda yangi ixtiro va yangi ko’rinishlarni kashf qilishingiz, zamonaviy tadbirkordek fikrlashingiz, innovatsion g’oyalarni hayotga tadbiq etishingiz va kuchli tadbirkorlar orasida bo’lishingiz tushuniladi va biz esa buni ta’minlaymiz.

NTM «Tashkent Study» o’quv markazi tadbirkorlarni o’qitish va amaliy ishga tayyorlash ishlarini olib boradi. Mazkur o’quv kurslari soha bo’yicha etarli bilimga ega bo’lmagan, lekin kelajakda o’z biznesini oolib, hayotda o’z yo’nalishini topishni maqsad qilganlar uchun mo’ljallangan. Bu kurslar Sizga o’z maqsadlaringizni ro’yobga chiqarish va hayotda o’z yo’lingizni topib olishingizda hamda biznesingizni to’g’ri boshqarish, nazorat qilish va rivojlantirishga o’rgatadi.

Darslarni yuqori malakali, o’z sohasi bo’yicha muvaffaqiyatlarga erishgan, iqtidorli muallimlar olib boradilar. Darslar davomida Siz dunyodagi yirik kompaniyalar faoliyati natijalari, ularga erishish ucun nimalarga e’tibor qaratish kerakligini bilib olasiz.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O’zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi. Shu jihatdan , hozirgi kunda respublikamizda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e ’tibor berilmoqda. Chunki, kichik biznes va tadbirkorlik sohasini rivojlantirish masalasiga davlatim iz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi sifatida qaralmoqda. Kichik biznes kapital taqchilligi sharoitida ko’p mablag‘ talab etmaydigan xo’jalik faoliyati sifatida resurslar aylanm asining yuqori sur’atlarini ta ’minlaydi, iqtisodiyotni qayta qurish, iqtisodiy nobarqarorlik va resurslar cheklanganligi sharoitida iste’m ol bozorini shakllantirish va uni to’ldirish m uam m osini tez ham da tejam li tarzda hal etadi. Kichik korxonalar iste’mol talabining o ‘zgarishiga darhol m oslashadi va shu y o ‘l bilan iste’mol bozoridagi zaruriy muvozanatni ta ’minlaydi. Kichik biznes yangi ish o ‘rinlarini yaratishi bilan ishsizlik muammosini hal etishda muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi paytda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o’sish sur’atlarini jadallashtirishda, balki m am lakatim iz uchun nihoyatda m uhim bo’lgan bandlik va aholi darom adlarini oshirish m asalalarini hal etishda ham etakchi o‘rin tutmoqda. Oxirgi yillarda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug’ullanuvchi

korxonalar soni yil sayin ortib borayotgani sohaning izchil rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar

1. M.P. BOLTABAYEV, M .S. QOSIMOVA, B.K. G'OVIBNAZAROV, "Kichik biznes va tadbirkorlik" Toshkent 2011-yil
2. SH.J. ERGASHXODJAYEVA, A.N. SAMADOV, Sh.I. OTAJONOV "Kichik biznes va tadbirkorlik" Toshkent 2011-yil
3. D. Suyunov, M. Yusupov "Kichik biznes va tadbirkorlik" Toshkent 2018-yil
4. <https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/05/29/NamDU-ARM>
5. https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/2265/18655